

**TABBIY FANLARNI O‘QITISHDA TIBBIY GIGIYENIK TA’LIM-
TARBIYANING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

H. Hazratqulov

Toshkent kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali 2-kurs magistranti,

(PhD). N.Narziyeva

Toshkent kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali

“Psixologiya va pedagogika” kafedrası, dotsenti

Annotatsiya: tabbiy fanlarni o‘qitishda tibbiy gigiyenik ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarga samarali yetkazish usullari, yangicha innovatsion pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiyalar va multimediya vositalari yordamida talabalarga gigiyenik qoidalar haqida chuqur bilim berish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Tibbiy gigiyena, simulyatsiya, tabbiy, multimediya, o‘qitish metoddlari, interfaol, pedagpgik yondashuv, samaradorlik.

Аннотация: Подчеркивается необходимость повышения эффективности медико-гигиенического образования при преподавании медицинских наук и эффективной его донесения до студентов, использования новых инновационных педагогических подходов и технологий, а также предоставления студентам глубоких знаний правил гигиены с помощью практических занятий, моделирования и мультимедийных средств.

Ключевые слова: Медицинская гигиена, симуляция, медицинский, мультимедиа, методы обучения, интерактивный, педагогический подход, эффективность.

Abstract: In order to improve the effectiveness of medical hygiene education in teaching medical sciences and to effectively convey it to students, it is necessary to use new innovative pedagogical approaches and technologies, to provide students with in-depth knowledge of hygienic rules using practical exercises, simulations and multimedia tools.

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

Keywords: Medical hygiene, simulation, medical, multimedia, teaching methods, interactive, pedagogical approach, effectiveness.

Gigiyenik va ekologik ta'lim-tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish va atrof-muhitni asrash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ta'lim yo'nalishlari nafaqat bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lomligini ta'minlaydi, balki ularda ijtimoiy mas'uliyat va ekologik ongni rivojlantiradi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi fonida ekologik va gigiyenik ta'limga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Shu bois, gigiyenik va ekologik tarbiyani xalqaro standartlarga mos ravishda olib borish zaruratga aylangan.

Tibbiy gigiyenik ta'limni samarali o'tkazishning asosiy maqsadi o'quvchilarga tibbiy gigiyena asoslarini o'rgatish, ularga sanitariya va gigiyenik qoidalar, kasalliklar tarqalishining oldini olish usullari haqida aniq va to'liq tushunchalar berishdir. Gigiyenik ta'limda o'qituvchi shaxsiy gigiyena qoidalarini o'rgatishdan tashqari, jamoaviy salomatlikni saqlash borasida ham muhim o'rin tutadi [1,2]. O'quvchilarni to'g'ri ovqatlanish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, qo'l yuvishning ahamiyati kabi oddiy, lekin juda muhim jihatlarda tarbiyalash zarurdir.

Shuningdek, ushbu bilimlarni yosh avlodga etkazish, ularning kelajakda sog'lom va uzoq umr ko'rishlariga xizmat qiladi. O'qituvchi nafaqat teorik bilim berishi, balki o'quvchilarni bu bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga undash uchun o'zini namuna ko'rsatishi kerak. Bu borada tabibiy fanlar tibbiy gigiyena asoslarini tushunishda va amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar yordamida tibbiy gigiyenik ta'limning samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun aktiv o'qitish metodlarini joriy etish, talabalarni faol ishtirok etishga undash, tibbiy gigiyena haqida bilimlarni faqat nazariy emas, balki amaliyotda ham qo'llash usullarini ishlab chiqishdan iborat [3,4].

Ekologik va gigiyenik ta'limni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi bir qator yondashuvlarni qo'llashi zarur. Gigiyenik va ekologik ta'lim-tarbiyani boshlang'ich ta'lim jarayoniga samarali joriy etish ko'p qirrali, puxta rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayonni talab etadi. Ushbu jarayonning har bir bosqichi maqsadga erishish yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Amalga oshirishning bosqichlari orqali o'quvchilarda gigiyenik va ekologik

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

ongni shakllantirish, shuningdek, ularning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Gigiyenik va ekologik ta'lim-tarbiyani boshlang'ich sinflarda joriy etish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu jarayon davomida olingan natijalar, ularning tahlili va dastur samaradorligi haqidagi xulosalar ta'limning keyingi bosqichlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sinov natijalarining har tomonlama o'rganilishi o'quv jarayonini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

O'quvchilarga atrof-muhitning muhofazasi, xavf-xatarlar haqida bilim berishda interfaol metodlar, guruhli ishlar va muhokamalar o'tkazish foydalidir. Bu, o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish imkonini yaratadi. O'qituvchi o'zining metodik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi, ekologik va gigiyenik ta'limni zamonaviy, hayotga mos tarzda amalga oshirishi kerak. Ilmiy tadqiqotlar, o'qituvchilarning ekologik va gigiyenik ta'limga oid metodikasini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchilar, yoshlarning ekologik va gigiyenik ta'limdagi bilimlarini tizimli ravishda oshirish zarurligini, shuningdek, bu jarayonning o'qituvchilar tomonidan interaktiv, tajribaviy yondashuvlar bilan amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlashadi. Shunday qilib, o'qituvchining o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishi va ekologik, gigiyenik ta'limga bo'lgan talablarni amalga oshirishi ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [1,4]. Tajriba davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida gigiyena va ekologiya bilan bog'liq tushunchalarni shakllantirish uchun interaktiv o'quv usullari qo'llanildi. Mashg'ulotlarda o'yin texnologiyalari, amaliy faoliyatlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish metodlari o'quvchilarning qiziqishi va faol ishtirokini ta'minladi. Tajribadan keyin o'quvchilarning gigiyenik xulq-atvori va ekologik ongida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. O'quvchilarda tabiatni asrashga nisbatan hurmat hissi shakllandi va ular kundalik hayotda gigiyenik me'yorlarga rioya qilishni boshladi. Bu natijalar o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirish imkonini berdi. Yosh avlodni ekologik va gigiyenik ta'limga yo'naltirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarning dunyoqarashini shakllantiruvchi, ularda mas'uliyatli munosabatni o'stiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Ekologik va gigiyenik ta'limning samarali tashkil etilishi, o'quvchilarni kelajakda atrof-muhitni asrab-avaylashga, sog'lom va

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

gigiyenik turmush tarzini yuritishga undaydi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sayfiddinov B. O'quvchilarda ekologik ongni shakllantirish. Toshkent: Ma'naviyat, 2020. 260 bet.
2. Aliyev, M., & Xodjayeva, Z. (2016). "Tibbiy gigiyenik ta'lim va uning sog'liqni saqlash tizimidagi roli." Tibbiyot jurnali, 28(3), 45-52.
3. Davlatov, K. (2020). "Tibbiy ta'limda gigiyenik qoidalar: nazariy va amaliy yondoshuvlar." Tibbiyot fanlari, 35(1), 122-126.
4. Kamilov, A., & Yunusov, D. (2018). "Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik metodlar." Oliy ta'limda tibbiy fanlar, 42(4), 64-70.